



MAMLAKATIMIZ TARAQQIYOTI UCHUN ULKAN HISSA QO‘SHAYOTGAN YANGI O‘ZBEKISTON AYOLLARI YUKSAK E‘TIROFGA MUNOSIB

Ko‘ksaroy qarorgohida Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan bayram tadbiri bo‘lib o‘tdi.

Tadbir avvalida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev nutq so‘zlab, muhtarama onalar, aziz opa-singillarni samimiy qutladi. Xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini to‘liq ta‘minlash, qadr-qimmatini ulug‘lash davlatimiz siyosatida yetakchi o‘rinda ekanini ta’kidladi.



Xususan, 2017-yilda boshqaruv sohasida xodimlarning o‘rtacha 20 foizini xotin-qizlar tashkil etgan bo‘lsa, hozirgi vaqtda bu raqam 35 foizga yetdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizini, Senat a‘zolarining 27 foizini ayollar tashkil etmoqda.

Bu jamiyatimiz rivojiga ham ijobiy ta’sir etmoqda. Eng muhimi, aql-zakovatli, bilimli va iste’dodli xotin-qizlar davlat va jamiyatning barcha sohalarida namuna bo‘lishmoqda.

O‘tgan yili Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida ayol sportchilarimiz 3 nafari

oltin, 8 nafari kumush, 3 nafari bronza medalini qo‘lga kiritdi. Madaniyat va san’at sohasidagi nufuzli xalqaro tanlovlarda 25 nafar, mamlakat miqyosidagi ko‘rik-tanlovlarda esa 71 nafar iste’dodli qiz g‘olib bo‘ldi.

Prezidentimiz ayollarning og‘irini

yengil qilish, ularga qo‘shimcha sharoitlar yaratish masalalariga alohida e’tibor qaratdi.

— Uy-ro‘zg‘or ishlari va farzand tarbiyasidan ortib, ta’lim olayotgan, mehnat qilayotgan va tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan xotin-qizlar

zamonamizning haqiqiy qahramonlari, desak, to‘g‘ri bo‘ladi. Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning og‘irini yengil qilish, ular uchun barcha sohalarida zarur sharoitlarni yaratib berish doimo davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi, — dedi Shavkat Mirziyoyev.

Shu bois, yangilangan Konstitutsiyamizdagi ijtimoiy davlat tamoyiliga muvofiq, ayollarni ijtimoiy himoya qilish ham yangicha tashkil etilmoqda.

[Davomi 2-betda](#)

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SHAVKAT MIRZIYOYEVNING XALQARO XOTIN-QIZLAR KUNIGA BAG‘ISHLANGAN TANTANALI MAROSIMDAGI NUTQI

Assalomu alaykum, qadrlı opa-singillar, dilbar qizlarim!

Avvalo, siz, azizlarni, ko‘p millatli butun yurtimiz ayollarini 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar bayrami bilan chin qalbidan samimiy muborakbod etaman.

Mutafakkir bobomiz Alisher Navoiy buyuk ona siymosi, mo‘tabar ayol zotini ulug‘lab, ularning baxt-saodati yo‘lida barchamizni fidokor bo‘lishga da’vat etgani albatta bejiz emas.

Chindan ham, mehr-oqibat, oljanoblik, muhabbat va sadoqat kabi yuksak insoniy qadriyatlarni kamol topirishda, oila qo‘rg‘onini mustahkamlashda sizlarning xizmatigingizni hech narsa bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Bugungi qutlug‘ bayramning fayzli Ramazon oyida bo‘lib o‘tayotgani uning ezgu ruhi va mazmunini yanada oshirmoqda.

Muqaddas dinimiz ham muhtarama onalarimiz, dilbar opa-singillarimiz, munis qizlarimizga hamisha yaxshilik qilishga, ularning izzat-hurmatini joyiga qo‘yishga buyuradi.

Mana shunday quvonchli ayyomlar barchangizga muborak bo‘lsin!

Hurmatli anjuman ishtirokchilari! So‘nggi yillarda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini to‘liq ta‘minlash, ularning qadr-qimmatini ulug‘lash Yangi O‘zbekistonning davlat siyosatida yetakchi o‘ringa qo‘yilmoqda.

Bugungi kunda hurmatli ayollarimiz turli soha va tarmoqlarda Vatanimizning jadal taraqqiyoti uchun munosib hissa qo‘shayotganlarini minnatdorlik bilan e’tirof etamiz.

Masalan, 2017-yilda boshqaruv sohasida xotin-qizlar o‘rtacha 20 foizni tashkil etgan bo‘lsa, hozirda bu raqam 35 foizga yetdi. Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlarining 38 foizini, Senat a‘zolarining 27 foizini ayollar tashkil etmoqda.

Ayollarning davlat boshqaruvi va parlament faoliyatidagi ishtiroki qizlarimiz jamiyatimiz rivojiga ham ijobiy ta’sir etayotganini hayotning o‘zi ko‘rsatmoqda.

Eng muhimi, aql-zakovatli, bilimli va iste’dodli xotin-qizlarimiz davlat va jamiyatning barcha sohalarida namuna bo‘lishmoqda.

O‘tgan yili Olimpiya va Paralimpiya o‘yinlarida mamlakatimiz delegatsiyasi tarkibidagi ayol sportchilardan 3 nafari oltin, 8 nafari kumush, 3 nafari bronza medalini qo‘lga kiritgani tariximizda ilgari bo‘lmagan natijadir.

Qizlarimiz madaniyat va san’at sohasida ham O‘zbekiston bayrog‘ini baland ko‘tarishmoqda. O‘tgan yili madaniyat va san’at sohasidagi nufuzli xalqaro tanlovlarda 25 nafar, mamlakat miqyosidagi ko‘rik-tanlovlarda esa 71 nafar iste’dodli qizlarimiz g‘olib bo‘lganlari ham shundan dalolat beradi.

Mana shunday ayollarimiz safi kengayishi, qizlarimiz bunyodkor avlod bo‘lib maydonga chiqishi uchun kelgusida ularga qo‘shimcha sharoitlar yaratib beramiz.

Albatta, bunday keng ko‘lamli ishlarimiz xalqaro miqyosda haqli ravishda e’tirof etilmoqda.

Qadrlı yurtdoshlar!

Bir haqiqatni barchamiz yaxshi tushunib olishimiz zarur. Ayollarning tashvish va mashaqqati ham, zimmasidagi mas’uliyati ham erkaklarga nisbatan ancha yuqori.

Uy-ro‘zg‘or ishlari va farzand tarbiyasidan ortib, ta’lim olayotgan, mehnat qilayotgan va tadbirkorlik bilan shug‘ullanayotgan xotin-qizlar zamonamizning haqiqiy qahramonlari, desak, to‘g‘ri bo‘ladi.

Yangi O‘zbekistonda xotin-qizlarning og‘irini yengil qilish, ular uchun barcha sohalarida zarur sharoitlarni yaratib berish doimo davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri bo‘lib qoladi.

Shubois, yangilangan Konstitutsiyamizdagi ijtimoiy davlat tamoyiliga muvofiq, ijtimoiy himoya sohasidagi ishlarni tubdan yangicha tashkil etmoqdamiz. Bu borada har bir mahallada xotin-qizlarning holati o‘rganilib, ijtimoiy himoyaga muhtoj va ehtiyojmand 1 million nafar xotin-qizlarimiz “Ayollar daftari”ga kiritildi.

Joriy yilda ularning har biri bilan manzilli ishlab, nogironligi bo‘lgan 162 ming nafar ayolga sanatoriya, shifoxona va o‘zlari yashayotgan mahallada tibbiy yordam ko‘rsatiladi, boquvchisini yo‘qotgan 130 ming nafar xotin-qizga moddiy yordam beriladi, yana 6 ming nafar ayolning uy-joy sharoitlari yaxshilanadi, mehnatga layoqatli va ish izlayotgan opa-singillarimiz ishga joylashtiriladi.

Shuningdek, har yili og‘ir vaziyatga tushib qolgan 50 ming nafar xotin-qiz mamlakatimizdagi so‘lim maskanlarda o‘qish va hordiq chiqarish uchun yuboriladi. Ularga psixologik yordam ko‘rsatilib, tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish bo‘yicha motivatsion seminarlar tashkil etiladi.

O‘zbekiston kasaba uyushmalari federatsiyasi raisi Q.Rafiqov bu ishlarga bosh-qosh bo‘ladi.

Xotin-qizlarning salomatligi — har tomonlama sog‘lom va qudratli jamiyat poydevoridir.

Shu maqsadda yurtimizdagi 230 ta tug‘uruq muassasasi 21 mingga eng zamonaviy tibbiy uskunalar bilan jihozlanadi. Bundan tashqari, joriy yilda 1,5 million nafar xotin-qizda saraton kasalligini erta aniqlash maqsadida skrininglar o‘tkaziladi.

Ayollar o‘rtasida jismoniy tarbiya va sport ommalashib borayotgani jamiyatda sog‘lom muhitni shakllantirishga katta turtki bermoqda. Shu bois, bu yil barcha mahallalardagi 4 million xotin-qiz ommaviy sport musobaqalariga jalb qilinadi.

Biz bir muhim haqiqatni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz zarur. **Ayollar sog‘lom bo‘lsa — oila mustahkam bo‘ladi, ularda ma’naviy muhit, ishchanlik kayfiyati yuksaladi, kelajakka ishonch ortadi.**

Bugungi kunda yurtimizda 40 mingta ana shunday oila barchaga namuna bo‘layotgani, o‘tgan yili ularning 208 tasi “Ibratli oila” ko‘krak nishoni bilan taqdirlangani barchamizni xursand qiladi.

[Davomi 2-betda](#)

NOYOB MINERALLAR XOM-ASHYO BAZASINI KENGAYTIRISH BO‘YICHA ZAMONAVIY LOYIHALAR

Prezident Shavkat Mirziyoyev 7-mart kuni sanoat uchun muhim minerallar xom-ashyo bazasini kengaytirish va qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish bo‘yicha taqdimot bilan tanishdi.

Yurtimiz hududida volfram, molibden, magniy, litiy, germaniy, grafit, vanadiy va titan kabi 30 dan ortiq sanoat uchun muhim minerallar mavjud. Lekin ilgari bu imkoniyat to‘la yuzaga chiqarilmagan. Qazilmalarni qidirish, texnogen chiqindilarni qayta ishlab, foydali moddalarni ajratib olish va ulardan mahsulot tayyorlashga investitsiya kiritilmagan edi.

So‘nggi yillarda tashkiliy asos yaratilib, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar olish bo‘yicha ishlar boshlandi. Taqdimotda tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri bu yo‘nalishdagi imkoniyatlar haqida axborot berdi.

Kelgusi uch yilda 28 ta noyob mineral bo‘yicha 2,6 milliard dollarlik 76 ta loyihani amalga oshirish mo‘ljallanmoqda. Buning uchun xom-ashyo bazasini kengaytirish maqsadida geologiya-qidiruv va ilmiy-tadqiqot ishlariga qo‘shimcha mablag‘ ajratish ko‘zda tutilmoqda.

Eng asosiy vazifa — zamonaviy texnologiyalarni qo‘llab, qimmat xomashyoni rudadan ajratib olish, sofligini oshirish va yuqori qiymatli mahsulotlar yaratish ekani ko‘rsatib o‘tiladi. Masalan, “Ingichka” konidagi volfram konsentratı boyitilsa, qo‘shilgan qiymat 2 karra oshadi. Hozircha shu kabi 18 ta loyiha ishlab chiqilgan.

Sohada “xom-ashyo — qayta ishlash — ilm va texnologiya — tayyor mahsulot” zanjirini kengaytirish maqsadida molibden va volframga boy Toshkent va Samarqand viloyatlarida texnoparklar tashkil qilish taklifi bildirildi.

Davlatimiz rahbari bu borada sanoat tajribalari va texnologiya transferini amalga oshirish, zamonaviy laboratoriya va o‘quv markazlari ochildi bo‘yicha topshiriqlar berdi. Umumman, “to‘rtinchi sanoat inqilobi” davrida munosib o‘ringa ega bo‘lish uchun mustahkam zamin yaratish zarurligi ta’kidlandi.

O‘ZA

HAYOT SHAMCHIROG‘I, JAMIYAT GULTOJI, MILLAT TARBIVACHISI

Poytaxtimizdagi “O‘zbekiston” xalqaro anjumanlar saroyida 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali tadbir bo‘lib o‘tdi. Unda senator va deputatlar, ilm-fan, san’at va madaniyat namoyandalari, turli vazirlik, idora va tashkilotlarda mehnat qilayotgan, har jabhada faol xotin-qizlar ishtirok etdi.

Bu yerda Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Xalqaro xotin-qizlar kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqi videotranslyatsiya orqali namoyish qilindi.

[Davomi 2-betda](#)





QALBI MEHR-MUHABBATGA TO'LA, SURATI-YU SIYRATI NAFOSATGA YO'G'RILGAN, SABR-QANOATNING BEQIYOS QUDRATI – AYOL

8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni



Jamila BOBONAZAROVA,
Oliy Majlis Senati a'zosi

Mamlakatimizda xotin-qizlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlash, intilish va qobiliyatini to'laqonli ro'yobga chiqarish uchun yanada qulay shart-sharoit yaratish davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezidentimizning 2019-yil 7-martdagi “Xotin-qizlarning mehnat huquqlari kafolatlarini yanada kuchaytirish va tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashga oid chora-tadbirlar to'g'risida”gi qarori ham ana shu maqsadga qaratilgan.

“O'zbekiston — 2030” strategiyasida xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash tizimini kuchaytirish, huquq va qonuniy manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy faolligini oshirish va gender tenglikni ta'minlash vazifalari belgilangan. Ushbu maqsad doirasida davlatimizning gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish orqali boshqaruv lavozimlaridagi xotin-qizlar ulushini 30 foiz oshirish ko'zda tutilgan.

Shuningdek, jamiyatda xotin-qizlarga ta'ziy qaratilgan sharoit va imkoniyatlar tufayli qisqa muddatda ushbu raqamni keskin kamaytirishga erishdik. Yaqin istiqbolda qolgan 10-15 oilaga ham tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish orqali kambag'allikdan chiqishiga ko'maklashishni maqsad qilganmiz. Buning uchun imkoniyatimiz yetarli. Faqat biz, mas'ullar bildirilgan ishonchni oqlash uchun chin dildan harakat qilsak, davlatimiz rahbari bot-bot takrorlayotganidek, fidoyi, vatansavar bo'lib faoliyat yuritsak, bas. Shunda daxldorlik bilan yashash zavqi bizni hech qachon tark etmaydi.



munosabatlarning moslashuvchan yangi shakllarini joriy etish, jumladan, masofaviy mehnat, frilans, outsourcing, austaffing tizimida ham biznes komponentlarini qo'llash mumkin.

Keyingi yillarda butun dunyoda xotin-qizlar tadbirkorligi keng tus olib, jahon iqtisodiyotiga katta hissa qo'shmoqda. Masalan, AQSH va Kanadada kichik biznesning uchdan bir qismi ayollar qo'lida. Fransiyada tadbirkor xotin-qizlar erkak tadbirkorlardan 3 barobar ko'p. Umuman, rivojlangan davlatlarda ishblarmon xotin-qizlar tadbirkorlarning 50,5-75,5 foizini tashkil etadi.

O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligiga keng imkoniyat yaratilgan. Ishblarmon ayollar safi ikki barobar kengayib, o'z biznesini yo'lga qo'ygan tadbirkor xotin-qizlar soni 200 mingdan oshdi. Iqtisodiyot va sanoat tarmoqlarida ayollar ulushi qariyb 50 foizni tashkil etyapti. Kichik biznes subyektlarining 150 mingdan ziyodini, fermer xo'jaliklarining 4550 dan ortig'ini xotin-qizlar boshqarmoqda.

Oliy Majlis Senatida xotin-qizlar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish va ularning bandligini ta'minlash bo'yicha maxsus komissiya faoliyat yuritadi. Bu komissiya har bir hududda favqulodda holat rejimida ishlab, mutlaqo yangicha yondashuvlar va tizim asosida xotin-qizlarni kasbga o'rgatish, bandligini ta'minlash, tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish bo'yicha sa'y-harakatlarini davom ettiryapti.

Komissiya ayollarning tadbirkorlik faoliyatini kengaytirish, ularni mehnat bozori talab qilyotgan raqobatbardosh kasblarga o'qitish sifati, samarasini oshirish va hududlarda mazkur faoliyatni yo'lga qo'yishning tashkiliy mexanizmlarini yanada takomillashtirishga alohida e'tibor qaratmoqda.

Bizningcha, xotin-qizlar kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanishi uchun ularning “yashil” taraqqiyotga erishish bo'yicha yondashuvini kengaytirish, kasbiy-malakaviy layoqatini oshirish, ishblarmonlikning zamonaviy yo'nalishlariga o'rgatuvchi kasbiy markazlar faoliyatini keng targ'ib qilish lozim.

Shuningdek, ayollarda makro va mikro darajada “yashil” standartlariga rioya qilish, mahsulot ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishda resurslardan tejab-tergab foydalanish ko'nikmasini yanada oshirish bugunning dolzarb masalalaridan.

DAXLDORLIK HISSI BILAN YASHASH ZAVQI

Gavharoy TOJIXONOVA,
Marhamat tumani “Yangi hayot”
MFYdagi hokim yordamchisi,
“Shuhrat” medali sohibi

Bu yilgi bahor qo'shaloq ayyom bilan hayotimizga kirib keldi. Bir yoqda Ramazon shukuh, ikkinchi tomonda ko'klam nafasi kezb yuribdi. Mana shunday sururli kunlarimiz yanada fayzli bo'ldi. 8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan davlatimiz rahbari farmoniga binoan mukofotlanganim haqidagi quvonchli xabarini eshitib, nihoyatda xursand bo'ldim.

2022-yildan buyon hokim yordamchisi vazifasida ishlab kelyapman. O'tgan muddatda bir haqiqatni angladim: mamlakatimizda



har bir yangi vazifa bejiz joriy etilmaydi! Chuqur o'ylanib, inson qadriini ulug'lashni ko'zda tutib hayotga tatbiq etiladi. Mahalla

instituti faoliyati samaradorligini oshirish, uni jamoatchilik boshqaruvi va nazoratining tayanch bo'g'iniga aylantirishga qaratilgan islohotlar tufayli odamlar hayotiga yangi mazmun va jamiyatga ko'tarinki ruh kirib keldi. Qisqa muddatli faoliyatim davomida o'zimga birlashtirilgan “Yangi hayot” mahallasidagi qariyb 5 mingga yaqin kishini birma-bir kashf qilyapman, desam mubolag'a bo'lmaydi.

To'g'ri, hokim yordamchisi vazifasida ko'proq erkaklar ishlaydi. Biroq har qanday ishda ham turmush o'rtog'i ayolni tushunib, qo'llab tursa, xotirjam ishlarkan. Bunday muhitda moddiy, ma'naviy qiyinchiliklar, mehnat mashaqqati ham sezilmaydi. Xonadonlarda birma-bir yurib, yuzlab yoshlar bilan yuzma-yuz uchrashib, dardini tinglab, kerakli tavsiyalar berib, yo'l-yo'riq ko'rsata olganimda o'zimni yengil his

qilaman. Odamlarga foydam tegayotganini bilish, ishonib topshirilgan vazifaga mas'ullik, daxldorlik bilan yashash zavqini tuyaman. Bu tuyg'uni so'z bilan ifodalash oson emas.

Dastlabki yili mahallamizda 70 dan ortiq moddiy qiyinlangan oila bor edi. Tizimda yaratilgan sharoit va imkoniyatlar tufayli qisqa muddatda ushbu raqamni keskin kamaytirishga erishdik. Yaqin istiqbolda qolgan 10-15 oilaga ham tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish orqali kambag'allikdan chiqishiga ko'maklashishni maqsad qilganmiz. Buning uchun imkoniyatimiz yetarli. Faqat biz, mas'ullar bildirilgan ishonchni oqlash uchun chin dildan harakat qilsak, davlatimiz rahbari bot-bot takrorlayotganidek, fidoyi, vatansavar bo'lib faoliyat yuritsak, bas. Shunda daxldorlik bilan yashash zavqi bizni hech qachon tark etmaydi.

“Besh tashabbus olimpiadasi”

hayotim mazmuni va yutuqlarim asosi

Nargiza XOLBOYEVA,
Sirdaryo viloyati
maktabgacha va maktab
ta'limi boshqarmasi boshlig'i,
“Do'stlik” ordeni sohibi



Xalqimiz, ayniqsa, yoshlar orasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish borasida izchil islohotlar amalga oshirilmoqda. Xususan, Prezidentimizning 2024-yil 15-noyabrda “Umumiy o'rta ta'lim maktablarida jismoniy tarbiya fani o'qitilishini tubdan takomillashtirish hamda ushbu fan o'qituvchilarining kasbiy faoliyatini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi qarorini pedagoglar yuqori katta qatnash bilan qabul qildi. Qaror bilan maktablardagi jismoniy tarbiya fani o'qituvchilariga bir qancha imkoniyatlar va vazifalar belgilab berildi.

Mazkur qaror ijrosini ta'minlash maqsadida viloyatimiz maktablarida haftaning har shanbasi “sport kuni” etib belgilandi. Shu kuni o'quvchi va o'qituvchilar ishtirokida sport-sog'lomlashtirish tadbirlari o'tkazib kelinmoqda. O'quvchilarimizni yoshi bo'yicha 3 toifaga — 1-4-sinf, 5-8-sinf va 9-11-sinfga ajratib oldik. Ya'ni yosh toifasidan kelib chiqib, o'quvchilarni sportning olimpiya, ommaviy va harakatli o'yinlar turlariga birlashtirish bo'yicha ishlar bosqichma-bosqich bajarilayapti. Shuningdek, maktablarda “Maktab sport klublari” faoliyati ham yo'lga qo'yildi.

Yaqinda olimpiya va paralimpiya harakati, ixtisoslashtirilgan va ommaviy sportni yangi bosqichga olib chiqish hamda aholi jismoniy faolligini oshirish chora-tadbirlari bo'yicha o'tkazilgan videoselektor yig'ilishida bu borada qilinayotgan ishlar xususida so'z aytish imkoniyatiga ega bo'ldim. Xizmatimiz yuksak e'tirof etilib, “Do'stlik” ordeni bilan taqdirlandim.

Bu e'tirof hayotimdagi eng unutilmas hamda quvonchli hodisa bo'ldi. Ushbu rag'bat, o'z navbatida, yanada g'ayrat va ishonch bilan intilishga undadi, shijoatimni oshirdi.

O'tgan yili “Besh tashabbus olimpiadasi”ga maktab o'quvchilarini qamrab olish ko'rsatkichi Sirdaryo viloyatida 66 foizni tashkil etdi. Jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari bilan ommaviy sport trenerining ishini uzviy yo'lga qo'yisak, bu ko'rsatkichni 100 foizga chiqarish mumkin. Chunki hamma sharoit, imkoniyat mavjud. Faqat fidoyilik kerak. Albatta, bu borada rejalarimiz bor. Qaytadan “yo'l xaritalari”ni ishlab chiqamiz. Maqsadimiz — viloyatimizdagi barcha jajji iqtidor egalarini sport maktablariga jalb etish.

O'zim chekka qishloqdagi oddiy oilada o'sganman. Otakab — muallimlikni tanlab, avval maktabda tarix fanidan dars berdim. So'ng boshqa tashkilot va idoralarda ishladim. O'tgan yildan buyon Sirdaryo viloyati maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi rahbariman.

Videoselektorda ommaviy sportni rivojlantirish va bo'lajak olimpiya, paralimpiya hamda jahon chempionlarini tarbiyalab, kamolga yetkazishda maktablarning o'rni beqiyos ekanini ta'kidlandi hamda bu bo'yicha qator vazifalar belgilandi. Biz — maktabgacha va maktab ta'limi xodimlari ushbu vazifalarni bajarishga katta mas'uliyat bilan yondashyapmiz. Shu bilan birga, qalbmiz faxr-iftixorga to'la. Chunki vatanimiz nomini ulug'laydigan bo'lg'usi chempionlarning yo'li ayni maktabgacha va maktab ta'limi maskanlaridan boshlanadi. Bu borada ta'lim muassasalaridagi jismoniy tarbiya fani o'qituvchilari va ommaviy sport turlari bo'yicha trenerlarning hamkorligini yo'lga qo'yisak, bugun maktab partasida o'tirgan bolakaylarning ertaga sport maktabida toblangan professional sportchi sifatida yetishishiga poydevor qo'ygan bo'lamiz.



“**AYOLLAR IQTISODIY FAOLLIGINI OSHIRISH REYTINGI DUNYO BO'YICHA TURLICHA, ALBATTA. YURTIMIZDA ESA BU BORADAGI NATIJALAR RIVOJLANGAN YOKI O'TISH DAVRIDAGI MAMLAKATLARDAGI HOLATDAN ANCHA YUQORI.**”

YUKSAK MUKOFOTNING MAS'ULIYATI KATTA BO'LADI

Dilnoza JAMOLOVA,
O'zFA Tarix instituti
direktori o'rinbosari,
“Do'stlik” ordeni sohibi

2008-yildan hozirga qadar jadidchilik harakatining vujudga kelishi, jadidlarning siyosiy, ijtimoiy, ma'rifiy, madaniy va ilmiy faoliyati, xorijiy aloqalari, jadidchilikda xotin-qizlarning tutgan o'rni borasida tadqiqotlar olib bordim. Ilmiy izlanishlarim hozir ham davom etmoqda. Ushbu o'ta muhim tarixiy bosqichni bir yoqlama, noxolis va yuzaki yoritishga qaratilgan yondashuvlarga qarshi o'laroq, jadidchilik ilmiy yo'nalishiga yangicha va haqqoniy qarashlarni olib kirdim deb o'ylayman. Jadidchilik milliy harakati tarixini bir butun va o'ziga xosliklari bilan asoslab berishga harakat qildim.

Jadidchilik harakati tarixini o'rganish bugun davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Chunki jadid bobolarimiz milliy davlatchilikni qayta tiklash yo'lida jonbozlik ko'rsatgan. Ammo bosqinchi hukumat ularni ruhan va jismonan yo'q

qilishga kirishdi, buning uddasidan chiqdi. Ilmiy tadqiqotlarim yuzasidan “Buxoro amirligida jadidlar va qadimchilar faoliyati (XIX asr oxiri — XX asr boshlari)”, “Turkiston va Sharq mamlakatlari taraqqiyparvarlarining o'zaro aloqalari (XIX asr oxiri — XX asrning birinchi yarmi)” asarlarini yozdim. “Jadidlar ko'zi — millatning ko'zi” hamda “Turkiston muxtoriyati milliy matbuotda” kitoblari nashrga tayyorladim.

2023-yili “Turkiston va Sharq mamlakatlari taraqqiyparvarlarining o'zaro aloqalari (XIX asr oxiri — XX asr birinchi yarmi)” mavzusida doktorlik dissertatsiyasini himoya qildim. Ushbu tadqiqotda Turkiston jadidlarining turk, tatar, qrim tatar, boshqird, ozarbayjon, qozoq, afg'on, fors, hind taraqqiyparvarlari bilan ta'lim, fan, madaniyat va siyosiy birlik yo'lidagi hamkorliklarini tarixiy manbalar asosida ochib berishga urindim. Jadid bobolarimizning turkiy xalqlar birligi, millatlar totuvligi, diniy bag'rikenglik yo'lidagi xizmatlariga alohida to'xtaldim.

Bugun turkiy xalqlar birligiga erishish masalasi kun tartibiga qo'yilgan va barcha



turkiy davlatlar buni qo'llagan bir paytda ilmiy tadqiqotim hamkorliklarning tarixiy ildizlarini bilishga xizmat qiladi.

Jadidlarning turkiy xalqlar birligiga erishish, diniy bag'rikenglik, millatlar birlamligi yo'lidagi xizmatlarini tadqiq qilganim, jadidchilik masalalarini mustamiz o'rganib kelayotganim uchun ushbu mukofotga munosib ko'rildim.

“Do'stlik” ordeni ilm yo'lidagi kichik xizmatlarim uchun berilgan yuksak mukofot. Prezidentimiz farmonida ism-

sharifimni o'qir ekanman, ilm yo'lida chekkan mashaqqatlarim bir zumda kinotasmadek ko'z oldimdan o'tdi. Men ilm bilan shug'ullanaman deb ahd qilgan paytlarim bugungidek sharoit, imkoniyat yo'q, doktorant arzimagan stipendiya evaziga ham yashab, ham dissertatsiya yozishi kerak edi. Bundan tashqari, ilmiy mavzumni Muvofiqlashtiruvchi kengash tasdiqlab berishini 4 yil kutganman.

Bu yuksak mukofot menga katta mas'uliyat yuklaydi. Turkiston jadidchiligi tarixini o'rganish bo'yicha ilmiy maktabga asos solishni maqsad qildim. Shogirdlarim bilan birga yirik loyihalar, tadqiqotlarni amalga oshirish orqali ilmiy jamoatchilikka, xalqimizga jadidchilik tarixiga oid muhim, yangi, yaxlit ma'lumotlarni taqdim qilamiz.

Inson borki, o'z oldiga buyuk maqsadlar, rejalar qo'yadi. Ayniqsa, davlat mukofoti bilan taqdirlansa, kichik xizmatlari yuksak darajada e'tirof etilsa, yanada shijoat bilan mehnat qiladi, ishonchni oqlashga intiladi. Men kelgusida Turkiston jadidlarining har biri haqida risolalar, bitiklar yozib, xalqimizga taqdim etishni niyat qilganman va hozir ushbu tadqiqot ustida ishlayapman. Tez fursatlarda Mahmudxo'ja Behbudiy, Munavvarqori Abdurashidxonov, Hoji Muin, Abdulla Qodiriy, Abdulla Avloniy, Abdulhamid Cho'ipon haqidagi risolalarimni nashr qildirib, keng jamoatchilikka havola etaman.

RAQAMLASHTIRISH SOHASIDA ISLOHOTLARNI AMALGA OSHIRISHDA IJRO INTIZOMINING O‘RNI

Bugungi kunda yurtimizda shiddatli rivojlanish kuzatilmoqda. Taraqqiy etib borayotgan barcha sohalarni tubdan isloh qilish va rivojlantirish uchun yangicha yo‘nalish va samarali tizimlar, zamonaviy boshqaruv usullarini amaliyotga joriy etish, murakkab sharoitlarda davlat qurilishining serqirra vazifalarini amalga oshirish va tezkorlik, tashabbuskorlik bilan yondashishga katta e‘tibor qaratilmoqda.



Sherzod ShERMATOV,
raqamli texnologiyalar vaziri

Faoliyatida ijro intizomiga qat‘iy rioya etadigan davlat organlari belgilangan vazifa va topshiriqlarni o‘z vaqtida samarali tarzda bajara oladi. Bugungi kunda davlat organlariga kelib tushayotgan har bir hujjatni ro‘yxatga olish va uning ijro muddatini belgilash hamda mas‘uliyat bilan yondashishda ijro intizomi muhim ahamiyatga ega. Bu esa, o‘z navbatida, hujjatlarning vaqtida ijro etilishini ta‘minlaydi.

Ijro intizomini mustahkamlashda huquqiy asoslar

Boshqaruv apparati barcha bo‘g‘inlarining tashkilotchilik, ijro va nazorat faoliyatini takomillashtirish, rahbarlar va mutaxassislarning ijro intizomini mustahkamlash, ularning O‘zbekiston Prezidenti hamda hukumat hujjatlaridagi topshiriqlar o‘z vaqtida bajarilishini ta‘minlash yuzasidan shaxsiy javobgarligini oshirish maqsadida 1999-yil 12-yanvarda Vazirlar Mahkamasining “Ijro intizomini mustahkamlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilingan.

Mazkur qaror bilan O‘zbekiston Prezidentining farmonlari, qarorlari, farmoyishlari va topshiriqlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari ijrosini tashkil etish va ularning amalga oshirilishini nazorat qilishning asosiy qoidalari belgilab berilgan.

Shuningdek, qonunchilik hujjatlari va topshiriqlar ijrosini samarali tashkil etishning yangi mezonlari va mutlaqo yangicha ta’sirchan tizimini joriy etish maqsadida Prezidentimizning 2021-yil 10-fevraldagi “Qonunchilik hujjatlari ijrosini samarali tashkil etishda davlat boshqaruvi organlari va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari rahbarlarining shaxsiy javobgarligini kuchaytirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi farmoni hamda 2021-yil 31-maydagi “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona elektron tizimi samarali faoliyat ko‘rsatishini ta‘minlashga qaratilgan qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori asosida vazirligimiz tizimidagi “UNICON.UZ” mas‘uliyati cheklangan jamiyati tomonidan “Ijro.gov.uz” ijro intizomi idoralararo yagona

elektron tizimi ishlab chiqildi. Bu tizim orqali vazirlik, idora, xo‘jalik birlashmalari va mahalliy ijro hokimiyati organlari o‘rtasida hujjatlar va ma‘lumotlar almashish hamda barcha qabul qilingan normativ-huquqiy hujjatlar ijrosini tahlil qilish va hisobini yuritish imkoniyati yuzaga keldi.

Mana shu imkoniyatlardan kelib chiqib, Raqamli texnologiyalar vazirligida ijro intizomi “markaziy apparat — tasarrufiy tashkilotlar — hududiy bo‘linmalar” shaklidagi texnologik zanjir asosida tashkil etilgan.

2024-yilda “edo.ijro.uz” elektron hujjat aylanish tizimi orqali jami 27,8 mingta topshiriq ro‘yxatga olindi. Xususan, O‘zbekiston Prezidentining farmon, qaror va majlis bayonlarida 1066 ta, Prezident Administratsiyasi hujjatlarida 49 ta, Vazirlar Mahkamasi hujjatlarida 1180 ta, Bosh vazir rahbarligidagi yig‘ilish bayonlari va topshiriq (rezolyutsiya) lari, shuningdek, vazirlik va idoralardan kelib tushgan 25 mingdan ortiq hujjat ijroga qaratildi.

Belgilangan vazifalarni o‘z vaqtida sifatlil bajarish bo‘yicha Vazirlar Mahkamasi tashabbusi bilan joriy qilingan tizim asosida “Ijro.gov.uz” yagona elektron tizimida nazoratga olingan har bir topshiriqqa kalendrar reja hamda vazir o‘rinbosarlari kesimida “yo‘l xarita”lari ishlab chiqilib, topshiriqlar ijrosi kunbay nazorat qilib borilmoqda.

Shuningdek, “Ijro.gov.uz” yagona elektron tizimidagi topshiriqlar ijrosi yuzasidan har hafta dushanba kuni vazir huzurida, har haftaning juma kuni esa vazirning birinchi o‘rinbosari huzurida tanqidiy muhokama qilib borish hamda nazorat va ijro intizomi bo‘limi xodimlari bilan individual tarzda ishlash va ularga ko‘maklashish tartibi yo‘lga qo‘yilgan.

Bu amaliy chora-tadbirlar samarasini bermoqda. 2024-yilda “Ijro.gov.uz” yagona elektron tizimida nazoratga olingan jami 2295 ta topshiriqdan 2278 tasi yoki 99 foizining ijrosini muddatidan oldin ta‘minlashga erishildi.

Hisob-kitoblarga ko‘ra, 2025-yilning I choragida “Ijro.gov.uz” yagona elektron tizimida 375 ta topshiriq (yanvar — 133 ta, fevral — 141 ta, mart — 101 ta) ham kunbay nazoratga olingan, yanvar va fevral oylaridagi topshiriqlar ijrosi to‘liq ta‘minlandi, mart oyida bajarilishi belgilangan topshiriqlar ijrosini o‘z muddatida sifatlil ta‘minlash bo‘yicha temir intizom bilan ishlash olib borilmoqda.

Ustuvor vazifalarning o‘z vaqtida, samarali va to‘liq hajmda amalga oshirilishini ta‘minlash, shuningdek, ijro intizomini yanada mustahkamlash, ijro etuvchi hokimiyat organlari tarkibiy bo‘linmalari rahbarlari va mutaxassislarining ish yuritish malakasi va kasbiy darajasini oshirish maqsadida Vazirlar Mahkamasi tomonidan taqdim etilgan ro‘yxatga muvofiq, 2025-yilning yanvar-mart oylarida iqtisodiy o‘qishlar tashkil etilmoqda.

Tegishli qaror bilan ijro intizomini mustahkamlash bo‘yicha yagona va uzluksiz texnologik zanjiri tashkil qilish bosidagidagi ustuvor yo‘nalishlar ham belgilab berildi.

Raqamlashtirish sohasidagi asosiy moliyaviy ko‘rsatkichlar

2024-yilda axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida xizmatlar hajmi 56,1 trillion so‘mni tashkil etdi. Shu bilan birga, tarixda birinchi marta kompyuter dasturlash xizmatlari hajmi telekommunikatsiya xizmatlari hajmidan oshib, 22,8 trillion so‘mga yetdi (2017-yildagiga nisbatan 69 karra). 2024-yilda IT Park rezidentlari 455 million dollarlik xizmatlar eksport qildi. Bu 2018-yilgi 1,7 million dollarlik eksport hajmiga nisbatan 294 barobar ko‘p demakdir. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari sohasida tovar va xizmatlar eksportining umumiy hajmi 870 million dollardan oshdi.

Bundan tashqari, 2024-yil oxiriga kelib, sohada faoliyat yuritayotgan kompaniyalar



soni 10,5 mingdan ortiqni tashkil etdi, shundan mingtasi xorijiy kapitalga ega. Sohada ish bilan ta‘minlanganlar soni esa 191 ming kishiga yetib, shundan 100 ming nafari frilanserdir (IT sohada o‘zini o‘zi band qilish). Shuningdek, IT Park rezidentlari tomonidan 12 mingta yangi ish o‘rni yaratildi.

Raqamli sanoatni rivojlantirish

O‘tgan yilda IT Parking ro‘yxatga olingan rezident korxonalari soni 2600 taga yetdi. Shundan 642 tasi xorijiy kapital ishtirokidagi kompaniyadir, bu 2017-yildagiga nisbatan 160 baravar ko‘p, o‘shanda bunday kompaniyalar soni 4 ta edi.

Bugungi kunda IT Parking 650 ta rezidenti eksportchi bo‘lib, 90 ga yaqin davlat, jumladan, AQSH, Yevropa mamlakatlari, Singapur va boshqalarga eksport xizmatlarini ko‘rsatmoqda. 2024-yilda IT Park rezidentlariga berilgan imtiyozlarning amal qilish muddati 2040-yilgacha uzaytirildi. Bundan tashqari, IT eksportini rivojlantirish maqsadida 2023-2024-yillarda AQSH, Germaniya, Saudiya Arabistoni va Koreya Respublikasida IT Park vakolatxonalari ochildi.

Telekommunikatsiya va raqamli infratuzilma

O‘tgan yilda qo‘shimcha 56,9 ming kilometr optik tolali liniya yo‘tqizildi va umumiy uzunligi 291 ming kilometrga yetkazildi. Bu 2023-yildagiga nisbatan 113,8 foiz o‘sishni

ko‘rsatadi. Baza stansiyalari soni 29,7 ming donaga oshirilib, 84 mingtaga yetdi.

Bundan tashqari, xonadonlarning 95,5 foizi keng polosali internetdan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘ldi. Shuningdek, tadbirkorlik subyektlari va ijtimoiy soha obyektlarining internet bilan qamrab olinishi 100 foizga yetdi. Internet tarmog‘iga ulangan aholi soni ulushi 83,9 foizni tashkil etdi.

2024-yil yakuniga ko‘ra, internetdan foydalanuvchilar soni 36 million kishidan oshdi, ulardan 12,1 millioni simli internetdan foydalanadi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda 5G+ texnologiyasini sinovdan o‘tkazgan va tijorat yo‘lida joriy etgan ilk davlatlardan biri bo‘ldi. O‘tgan yil oxiriga kelib, internet narxi 1 Gb uchun 0,29 sentni tashkil etdi, ya‘ni narx 2017-yildagiga nisbatan 7,1 baravar arzonlashdi. Tezlik bo‘yicha mobil internet o‘rtacha hisobda



38,97 Mbit/s, simli internet 38,96 Mbit/sga yetdi.

Raqamli hukumat va elektron xizmatlar

O‘tgan yilda davlat organlari faoliyatini raqamlashtirish va davlat xizmatlarini elektron ko‘rinishga o‘tkazish bo‘yicha 200 dan ortiq loyihani amalga oshirish ishlari yakunlandi. “Raqamli bojxona”, “Transport nazorati”, “Shaffof qurilish”, “Raqamli moliya va soliqlar” kabi tizimlar joriy etilishi hamda



idoralararo elektron hamkorlikni yo‘lga qo‘yilishi natijasida fuqarolardan 100 dan ortiq turdagi ma‘lumotnoma va hujjat, shuningdek, tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun talab etiladigan 150 dan ziyod litsenziyalash va ruxsat berish tartib-taomili bekor qilindi.

Bugungi kunda aholiga 700 dan ortiq turdagi elektron davlat xizmatlari (2018-yildagiga nisbatan 5 barobardan ko‘proq o‘shish) taqdim etilmoqda. Ulardan o‘tgan yili qariyb 34 million marta foydalanilgan, bu, o‘z navbatida, davlat organlari tomonidan ko‘rsatilayotgan xizmatlar umumiy hajmining 70 foizdan ortig‘ini tashkil etadi.

Shu bilan birga, Yagona interaktiv davlat xizmatlari portali mobil versiyasida 420 dan ortiq xizmat ishga tushirildi (2020-yildagiga nisbatan 26 barobar ko‘p, o‘shanda bunday xizmatlar soni atigi 16 ta edi).

BMTning elektron hukumatni rivojlantirish reytingida O‘zbekiston so‘nggi 4 yil ichida 24 pog‘ona ko‘tarilib, 2024-yilda 193 davlat orasida 63-o‘rinni egalladi.

Raqamli texnologiyalar sohasida ta‘limni rivojlantirish

Xorazm viloyatida “Muhammad al-Xorazmiy vorislari” loyihasi tajriba tariqasida ishga tushirildi. Loyiha doirasida 7-11-sinflar orasida saralangan 4200 nafar maktab o‘quvchisi tahsil olmoqda.

Xalqaro IT sertifikatlar olgan talabalar soni 5600 nafardan oshdi (2023-yilda bu ko‘rsatkich 2932 nafar edi).

2019-2022-yillarda Birlashgan Arab Amirliklari hukumati bilan hamkorlikda “Bir million o‘zbek dasturchilari” loyihasining birinchi bosqichi yo‘lga qo‘yilib, unda 1,2 million yosh o‘qitildi.

Mazkur loyihaning navbatdagi bosqichida 2023-yildan boshlab uezbecoders.uz saytida Coursera xalqaro ta‘lim platformasidagi kurslarga kirish imkoniyati ochildi. Bu bosqichda 1,2 million yoshni o‘qitish rejalashtirilgan bo‘lib, ulardan 30 ming nafari xalqaro professional IT sertifikatga ega bo‘ladi.

2024-yilda “Global Skills” hisobotida O‘zbekiston kadrlar tayyorlashga sarmoya kirituvchi davlatlar orasida birinchi o‘rinni egalladi. “Har bir mahallada 7 nafar dasturchi” davlat dasturi doirasida 60 ming yosh ingliz tili kurslarini tamomlab, 10 ming nafari nemis va boshqa tillarni o‘rganib, sertifikatlarga ega bo‘ldi.

Ijro intizomini mustahkamlash yo‘lida

Vazirlikning hay‘at yig‘ilishlarida markaziy apparat va tizim tashkilotlarida ijro intizomi buzilishiga yo‘l qo‘ygan mas‘ullarga nisbatan ta’sirchan intizomiy jazo choralari qo‘llash hamda topshiriqlar ijrosi chekkilishi yoki bajarilmaslik xavfi mavjud topshiriqlar alohida muhokama qilinib, muammolarni tezkorlik bilan hal etish choralari ko‘rilmogda.

“Ijro.gov.uz” tizimi orqali topshiriqlarning bajarilishi bo‘yicha amaldagi tizimga muvofiq, “Adliya vazirligi, Vazirlar Mahkamasi, Hisob palatasi” texnologik zanjiri bilan doimiy mustahkam aloqa o‘rnatilgan, yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etishda mas‘ullardan kerakli tavsiya va ko‘rsatmalarni o‘z vaqtida olish tizimi yo‘lga qo‘yilgan.

Mamlakatimizda ijro intizomi va raqamlashtirish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar davlat boshqaruvi samaradorligini oshirish va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik, investitsiyalarni jalb qilishda yuksak natijalarga zamin yaratmoqda.

Yurtimizda “Inson qadri uchun” tamoyili asosidagi islohotlarni amalga oshirishda ijro intizomi asosiy harakatlantiruvchi omil ekanini doim anglab, kuch-g‘ayratimizni o‘zimizga yuklatilgan vazifalarni siddiqildan bajarishga safarbar etishimiz lozim.

Ayniqsa, davlatimiz rahbarining topshiriqlari ijrosini ta‘minlash barcha darajadagi davlat organlari va mahalliy davlat hokimiyati organlari rahbarlarining eng mas‘uliyatli vazifalaridan biri bo‘lishi shart.


Kun mavzusi

MENDAN KETGUNCHA, EGASIGA YETGUNCHA

Yangi tizim bunday ishlashga yo‘l bermaydi



Sadriiddin bir paytlar namunali loyihalar asosida qurilgan uy sotib olgandi. Bu butun oilani quvontirgandi. Chunki ular shu paytgacha ko‘p qavatli uyda, ikki xonali kvartirada ota-onasi bilan yashayotgandi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!

Uy 12 sotix ekan. Dadam tomorqada shug‘ullanadi, o‘g‘illarim tovuq, qo‘y boqadi, degan niyatda yangi uyga ko‘chib kelgan Sadriiddinning hafsalasi pir bo‘ldi. Chunki uy sifatsiz qurilgandi. Xonalar orasidagi devorlar juda yupqa. Polning bu tomonini bossa, ikkinchi tomoni ko‘tarilib ketadi. Qisqasi, uy “mendan ketguncha, egasiga yetguncha” qabilida tiklangan.

Sadriiddin uyni 3-4 oygacha qabul qilmayman deb yurdi. Baribir bo‘lmadi. Qurilish firmasi nosozliklarni bartaraf etmadi. Usta chagirtirib, kreditga olingan uyni qaytadan ta’mirlatishdan boshqa chorasi qolmadi. Ustalar ham uyning uchdan bir bahosiga ta’mirladi. Oldinda esa 15 yil uyning kreditini to‘lash kerak.

Bu muammo faqat Sadriiddinda emas, o‘sha paytlarda yangi uy olganlarning aksarida bo‘lgani rost. Chunki qurilish nazorati past edi. Quruvchi firma ham shunga yarasha ishlardi. O‘rtada oddiy aholi jabr ko‘rardi.

Shu o‘rinda xalq orasida yurgan bir hikoya esimga tushdi.

...Ko‘p yillardan buyon qurilish sohasida ishlab kelgan mutaxassisga eng so‘nggi qurilish obyekti topshiriladi. Qurilish rahbarlari “Shu obyektni qancha tez bitirsangiz, nafaqaga shuncha tez chiqasiz”, deya topshiriq beradi. Mutaxassis obyektni muddatidan avval qurib bitkazadi. Qurilish kompaniyasi tantanali ravishda ushbu uy kalitini uning o‘ziga sovg‘a sifatida topshiradi. Yakuni o‘zingizga ma‘lum...

Bu holatlarni nimaga eslayapmiz? Gap shundaki, keyingi yillarda mamlakatimizda kechayotgan islohotlardan biri aynan uy-joy qurish, sotish va sotib olish tizimini takomillashtirishga qaratilgan. Shahar va tuman markazlarida zamonaviy, qulay ko‘p qavatli uylardan iborat, o‘ziga xos infratuzilmaga ega kichik shaharchalar, “Yangi O‘zbekiston” massivlari paydo bo‘lmoqda.

Shuningdek, kam foizli ipoteka kreditlari joriy etilib, aholining ikkilamchi bozorda uy-joy sotib olish imkoniyati oshirilmogda. Eng asosiysi, kam ta‘minlangan, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga muntazam ravishda subsidiyalari

ajratilib, birlamchi ehtiyojlarini qondirishiga shart-sharoit yaratilyapti.

Yaqinda Prezidentimiz raisligida ipoteka dasturi doirasida 2024-yilda amalga oshirilgan ishlar va 2025-yil uchun rejarlar muhokamasi yuzasidan o‘tkazilgan videoselektor yig‘ilishida joriy yil ko‘p qavatli uylar qurilishida son va sifat jihatidan yangi marralar zabt etilishi qayd qilindi. Xususan, 2025-yilda 120 ming xonadonli ko‘p qavatli uylar qurilishi rejalashtirilmogda. Shuningdek, butunlay yangicha, zamonaviy ko‘rinishga, shart-sharoitiga ega, “yashil” energiya ta‘minotiga ulangan 15 ming xonadonli ko‘p qavatli uylar barpo etish, eski uylarni renovatsiya asosida yangilash masalasiga ham alohida e‘tibor qaratilmogda.

Endi yangi mexanizmlar vositasida asl quruvchilarga yengillik ko‘payib, firibgarlar esa sohani tark etadi. Qurilish sohasidagi munosabotlar davlatning to‘liq nazorati ostiga olinmogda. Bu, birinchi navbatda, xalq manfaatlari, inson huquqlariga urg‘u berilyapti, degani. Qurilish sohasini tartibga solish, yuqoridagi kabi ko‘ngilsiz holatlarning oldini olish maqsadida sohada xalqaro tajribada sinovdan o‘tgan eskrou tizimi yo‘lga qo‘yilmogda. Bunga Prezidentimizning joriy yil 27-yanvardagi “Uy-joy qurilishi sohasini yanada rivojlantirish, turar va noturar joy obyektlarini ulush kiritish asosida qurish jarayonini tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni huquqiy asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu tizimda quruvchidan uy sotib olmoqchi bo‘lgan fuqaroning boshlang‘ich va oyma-oy to‘lovi tijorat banklaridagi eskrou hisobvraqarlarida saqlanadi. Ushbu

maablag‘lardan quruvchi ham, fuqaro ham, bank ham foydalana olmaydi. Bunda jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari himoya qilinishini ta‘minlash ko‘zda tutilgan. Qolaversa, uy-joylarni ulush kiritish va ipoteka krediti asosida sotib olishning ishonchli va samarali imkoniyatlari yaratilmogda.

Qurilish ishlari esa quruvchining o‘z maablag‘i yoki bankdan olingan kredit evaziga amalga oshiriladi. Qurilish ishlari tugaganidan so‘ng deposit hisobvraqaridagi maablag‘ xaridorning roziligi bilan quruvchining kreditini to‘lash uchun ishlatiladi va qolgan miqdori quruvchi hisobiga o‘tkazib beriladi. Bir so‘z bilan aytganda, hammasi xamiridan qil sug‘urgandek oddiy va oson, eng muhimi, ishonchli, shaffof tarzda amalga oshiriladi.

Yangi tizim sohada hech qanday yashirin, qing‘ir ish bo‘lishiga yo‘l qo‘ymaydi. Xaridorning barcha huquqlari ta‘minlanishi to‘liq nazorat ostida bo‘ladi.

Prezidentimiz farmoni bilan yo‘lga qo‘yilayotgan yangi tizim bo‘yicha quruvchi tashkilotlar qurilishni boshlaganidan yakuniga yetguncha, lekin uzog‘i bilan 12 oy davomida yer solig‘i to‘lashdan ozod qilinadi. Qurilish o‘z vaqtida yakunlanmagan holatda esa ikki karra ko‘p soliq to‘lashga majbur bo‘ladi. Bir so‘z bilan aytganda, endi qurilish sohasiga “adashib kirganlar” ishlashi qiyin. Bu yerda faqat o‘z ishini yetuk mutaxassislari faoliyat yuritadi. Aytishadi-ku, “Chumchuq so‘ysa ham qasab so‘ysin”, deb.

Minajatdin QUTLIMURATOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

Dildagi gaplar



UMRIMIZ TOPSIN SAMAR, BOG‘ YARATAYLIK

Zamira RO‘ZIYEVA,
O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, shoir

Tengdoshlarimning ko‘pi bolaligini eslaganida onasi yopgan issiq kulchani ariq suviga oqiziq qilib yeganini so‘zlaydi. Andijonning qadim eski shahar qismidagi gavjum mahallada yashaganimiz uchunmi, hovlimiz torgina edi. Ammo shu torgina hovlimizda tandir bo‘lardi. Hovli o‘rtasidan ariq oqib o‘tardi. Suvi tiniq, suvi shirin ariq...

Ko‘chamizdagi har bir hovlini tabarruklab o‘lgan bu ariqning ikki chetiga onam rahmatli boshdan-oxir rayhon, jambil, o‘sma va yana turli gullar ekib qo‘yardi. Esimda qolgan, onam gulu rayhonlarni ariqdan bir-bir yarim qarich beriga ekib, kunora bizga gullarni sug‘orishni buyurardi. Nega yaqinroqqa ekmaysiz, o‘zi suv ichaverardi, degan so‘rovimizga:

— Gulu rayhonlarning qurigan bargi, xazoni gul oldiga borgan odamning kalishidagi loyga tegib ariqqa tushsa, yomon bo‘ladi, — derdi.

— Qanaqa yomon bo‘ladi? — deya erinmay so‘rardim.

— Bolam, suv ham nondek aziz ne‘mat. Ariq‘imizdagi suv shifobaxsh hovuzdan keladi. Uni ifloslantirish yaxshi bo‘ladimi? Albatta, yomon bo‘ladida.

— Qanaqa shifobaxsh hovuz?
— Bizdan bir mahalla narida katta hovuz bor. O‘sha atrofdagi xonadonlardan oqib chiqqan suv hovuzga quyiladi, hovuzda baqa ko‘p. Donolarning aytishicha, baqalarning ko‘zidan to‘kiladigan yod degan modda suvni shifobaxsh suvga aylantirarkan. Shuning uchun bu suvni ichgan aholi buqoq kasaliga uchramaydi hisob. Har ikki-uch mahallada bitta hovuz bo‘lishi sababi shundan, bolam. Suv hovuzda ham tinadi, ham yodlanadi, keyin bizga oqadi. Sizlar kulcha oqizib yeyapsiz-ku, unga shox-shabba, chiqindi tashlasak, bizdan keyingi hovlidagilar xafa bo‘ladi, qizim. Ularning bolasi ham kulcha oqizib yeydi, shu suvdan ichadi, osh-ovqatiga ishlatadi axir.

Onam aytganidek, tandirdan uzilgan, qo‘lni kuydirgudek issiq kulchani o‘rtloqlarim bilan ariqda oqiziq qilib yeyishni juda yaxshi ko‘rardim. Oilada yetti farzand bo‘lganmiz. Onam har uch kunda bir marta non yopardi. Bizga atab kulcha yasash sira esidan chiqmasdi. Singlim, yana ikkita o‘rtog‘im bilan kimning kulchasi tez oqadi deb qiyqirib yugurardik. Bugun mening onam yopsa, ertasi kuni Turg‘unoyning onasi, keyingi kuni Zumrad dugonamning onasi non yopardi. Maza qilib issiq kulchani shifobaxsh suvda ivitib yerdik.

Yillar o‘tib ulg‘aydik. Oltinko‘l tumanining Ofotbachek qishlog‘iga kelin bo‘lib tushdim. Mahallamizdan katta ariq o‘tardi. Har bir xonadon darvozasi oldida ko‘priklar bor. Aytishlaricha, bu yerdagilar ham bolaligida kulcha oqiziq bilan yayragan. Onam hozir unday emas. Suvida goh chiqindi, goh tarvuz-qovun po‘chog‘i, goh mol-holdan ortgan nishxo‘rd, goh achigan osh-ovqat sarqiti oqayotganini ko‘rib qolaman. Ariqdagi suv ichish tugul, bolalarning cho‘milishiga ham yaramaydi. Keyingi ikki-uch yildan beri ota-onalar bolalari uchun turli o‘lchamdagi sun‘iy basseynlar sotib olishga majbur bo‘layotgani shundan.

Qaynonam rahmatli yangi kelin bo‘lgan yillarim “Bu omadli mahalla, ariq‘i bor. Tomorqani qiynalmay sug‘oramiz”, derdi. To‘g‘ri, tomorqani sug‘oramiz, ammo mol-holning nishxo‘rdidan “bahramand” suv ekinzorni bir haftada begona o‘tga bostirib yuboradi. Qolaversa, qishloqlardagi artezian quduqlarning motori goh-goh buzilib qolsa, uch-to‘rt kun suvsiz qolamiz. Shunday paytda tongda turib, ikki paqir suv olib, tindirib ichishga ham ko‘ngil bo‘lmaydi.

Ichimlik suvga zot mamlakatlar yo‘q emas, biz esa borini asray olmasak, onam aytganidek, “yomon bo‘ladi”. O‘ylasam, “yomon bo‘ladi”ning ma‘nosi

chuqur ekan. Axir hammamiz ham kattalarning “Hoy, nonni uvul qilma, yomon bo‘ladi. Qushlarga cho‘zmadan tosh o‘tib ozor berma, yomon bo‘ladi. Daraxt shoxini sindirma, yomon bo‘ladi. Suvga chiqindi tashlama, yomon bo‘ladi”, degan pandu nasihatlarini eshitib ulg‘ayganmiz.

Bugun ne‘matga noshukurlik — tabiatga shafqatsizlik ekanini esa unutib qo‘yganga o‘xshaymiz. Shu suv bor — ekinimiz rivoj topadi, bog‘imiz meva beradi, chanqog‘imiz qonadi, yozning issig‘ida bolalarimiz cho‘milib, maza qiladi. Demak, biz yashab turgan ona tabiatning suvi, daraxti, havosi bir-biriga uyg‘un. Atrof-muhit musaffoligi, bog‘lar to‘kinligi, manzarali daraxtlarning sersoyaligi, go‘zalligi, ichar suvimizning tozaligi o‘zimiz uchun-ku. Kasalliklarning ko‘payishi, bolalarimizning hammasi ham polvon bo‘l olmayotgani sababi o‘sha “yomon bo‘ladi” yetib kelgani emasmi?!

2025-yilning Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb nomlanishi ayni muddao bo‘ldi. Tabiat o‘zimizniki, uni o‘zimiz asrab, o‘zimiz yaxshilamasak, kelajagimiz biz kutgandek bo‘lmaydi. Daraxtlarning toza kislorod chiqarib, zaharli karbonat angidridni yutishini 5-sinf bolamiz ham muallimidan



eshitgan. Bolalarimiz ta‘lim olayotgan maktablarda ham 2025-yilning mazmun-mohiyati o‘rgatila boshlangani bo‘ldi. Buni 4- va 6-, 8-sinflarda o‘qiyotgan uch nabiraning mendan tabiatni asrash haqida she‘r so‘rab, savollar bera boshlaganidan bildim. Buvi bo‘lib yordamga kirishdim, albatta.

Andijonning Ulug‘nor tumanida Qodirjon Qo‘ziyev degan otaxonni bilaman. O‘zi “Boburshoh” fermer xo‘jaligi rahbari. “Nabiramga nasihatlar” degan tamoyil kashf qilib, Ulug‘noring hamma maktabida uchrashuvlar o‘tkazibdi. O‘quvchilarga vatan, tuproq, bog‘lar, daraxtzorlar, yashil dalalar va ularga munosabat haqida so‘zlab beradi. Har yili fermer xo‘jaligi mablag‘i hisobidan uchta-to‘rtta maktabga 50 tupdan, ba‘zan undan ham ko‘proq ko‘chat olib, nuroniy do‘stlari bilan o‘quvchilar ishtirokida ko‘chat ekadi. Har gal 50-100 nusxada chiqarilgan “Nabiramga nasihatlar” bukletini bolalarga tarqatadi-da, unda o‘zi yozgan hikmatli iboralarini aстойdil sharhladi. Keyin ko‘chat ekishda ishtirok etgan tengdoshlari bilan maktablarga borib, daraxtlardan xabar oladi. Ekan mevali daraxtlari allaqachon hosilga kirgan. O‘sha maktablar jamoasi har yili hosil pishganda otaga mevasidan keltirib xursand qiladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Qodirjon ota bu yilimizning Atrof-muhitni asrash va “yashil iqtisodiyot” yili deb nomlangani sharafiga har yilgidan ko‘proq ko‘chat tayyorlab, tashkilotlar, maktablar, bolalar bog‘chalari va sog‘a qilmoqchi. Imkon topib, yana nuroniy jo‘ralari bilan ko‘chat ekish tadbirlarini o‘tkazmoqchi.

Elimizda “Birlashgan — o‘zar” degan naql bor. Hammamiz bir yoqadan bosh chiqarib ishga kirishsak, davlatimiz rahbari tashabbusi bilan boshlangan xayrli ishlarni, albatta, amalga oshira olamiz. Bir-birimizga ibrat bo‘lsak, yoshlarimizga nega “onajonim tabiat”, deyimimizni mazmunan kengroq tushuntirsak, hayot nafasini hadya qiluvchi — kislorod beradigan daraxtlar uchun ongli bog‘bondek mehrliroq bo‘lishimizni uqtirsak, o‘zimiz ishboshi bo‘lsak, natijaga erishamiz.

Axir “yashil makon” degan ibora bizga notanish

“Biz yashab turgan ona tabiatning suvi, daraxti, havosi bir-biriga uyg‘un. Atrof-muhit musaffoligi, bog‘lar to‘kinligi, manzarali daraxtlarning sersoyaligi, go‘zalligi, ichar suvimizning tozaligi o‘zimiz uchun-ku. Kasalliklarning ko‘payishi, bolalarimizning hammasi ham polvon bo‘l olmayotgani sababi o‘sha “yomon bo‘ladi” yetib kelgani emasmi?!”

emas. Har yili daraxt ekamiz, bu haqda katta-katta sanoq sonlari bilan hisobotlar tayyorlaymiz, ammo ko‘chat ekish mavsumi o‘tishi bilan o‘zimizdan ortmay, “ikkichi o‘quvchi”day munosabatda bo‘lamiz. Ekkanimiz rostim? Rosti bo‘lsa, nega ko‘karmayapti? Nega qurib qolsa, hijolat chekmayapmiz, axir mablag‘ sarfladik, kun bag‘ishladik, nega safarbarlik tugashi bilan mehramizni yig‘ishtirib o‘laypmiz deb o‘ylamasak, unda onam aytganday “yomon bo‘ladi”.

Yo‘q, “yomon bo‘lishi”ga yo‘l qo‘ymaymiz. Axir tuprog‘imizga cho‘p suqib qo‘ysangiz ko‘karadi, barg yozadi. Yil nomlanishidagi tashabbusni yetti yoshdan yetimish yoshgacha qo‘llab-quvvatlasak, bahorda ekib, yozu kuzda parvarishni to‘xtatmasak, bog‘ yaratib ham yurtini yashnatsak, ham rizqimizni ko‘paytirsak, har bir shahar, qishlog‘imiz yashash uchun oliy makon bo‘ladi, yaxshi bo‘ladi!

To‘zmasin dunyo desak gar, bog‘ yarataylik, Umrimiz topsin samar, bog‘ yarataylik. Yaxshilik ishqida bo‘lgan ko‘ngillarmiz, Yashnasin olam, birodar, bog‘ yarataylik.

Qahrin paydo gunoh, mehrdandur savob, Mehrimiz osmon barobar, bog‘ yarataylik. Kim zaminni yashnatibdir, unga andin, Yaxshilik ming karra qaytar, bog‘ yarataylik.

Gullasa bog‘lar — chiroy, bolday mevasi, Rizqu ro‘z elga muqarrar, bog‘ yarataylik. Bu olam kirlanmagay hech, havosin, Tozartirar shomu sahar, bog‘ yarataylik.

Yuksalish pallasi

BOBOM BOSHLAB BERGAN YO‘L TAQDIRIMDA ENG GO‘ZAL KUNLARGA AYLANDI

Afro‘za HAMDAMOVA,
Samarqand shahridagi 42-maktab o‘quvchisi,
Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti sovrindori



O‘zbekiston – iqtidorli va iste‘dodlilar yurti. Har bir sohada noyob iqtidori, o‘ziga xos iste‘dodini namoyish eta oladigan, yurtimiz nomini dunyoga yoyadigan yoshlar bisyor. Jumladan, aqllilar o‘yini – shaxmatda ham. Ehtimol, buning sababi shaxmatning qadim zamonlardanq yurtimizda rivoj topganidadir?! Mamlakatimiz hududidan topilgan qadimgi shaxmat donalari azaldan yurtimizda mazkur sport turining mavjud bo‘lgani va odamlarning shaxmat o‘ynab kelganini isbotlaydi.

Oradan kechgan davrlar shaxmatga e‘tiborni saqlab qola oldi. Endi shaxmat butun dunyoda ham intellektual, ham sport o‘yini sifatida qadrlanmoqda. Yurtimizda yosh iqtidorlar safini yanada kengaytirish, shaxmatni ommalashtirish, o‘zbek shaxmatining yorqin kelajagini ta‘minlovchi iste‘dodli sportchilarni tarbiyalashga ahamiyat qaratilmoqda. Bu borada shaxmatga, yosh shaxmatchilarga davlatimiz rahbarining alohida e‘tiborini e‘tirof etish lozim.

Yangi O‘zbekiston har bir sohada yangi qadamlar — yangi marralar davri sifatida tarixga muhrlanayotir. Shaxmat bo‘yicha qo‘lga kiritilayotgan yutuqlar salmoqli. Bu biz, shaxmatchilarga yaratib berilayotgan sharoit va imkoniyatlar ko‘lami kengayayotgani, buning ortidan mahoratimiz yildan yilga ortib borayotganidan darak. Shu bilan birga, shaxmatni aholi o‘rtasida keng targ‘ib qilish va uni ommaviy sport turiga aylantirish, o‘sb kelayotgan yosh avlodning intellektual va madaniy rivojlanishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, yuqori iqtidorga ega yoshlarni tanlash, saralab olish va ularni professional shaxmatchilar va xalqaro grossmeysterlar sifatida tayyorlash tizimini yo‘lga qo‘yish, murabbiylar uchun munosib mehnat sharoitini yaratish borasidagi islohotlar samarasi hamdir.

Hali to‘rt yoshga to‘lmay, shaxmat taxtasi va donalari bilan tanishdim. Dadamning ta‘biricha, shaxmat donalari sevimli o‘yinchoqlarim bo‘lgan. Hamdamq bobom mohir shaxmatchi bo‘lgani bois, dadam va amakilarim ham bobomning izidan bordi. Ular turli musobaqa va turnirlarda ishtirok etib, g‘oliblar safidan joy egallagan.

11 yoshimda O‘zbekiston ayollari o‘rtasida 1-liga g‘olibi bo‘lib, “O‘zbekiston sport ustasi” unvonini qo‘lga kiritdim. Shuningdek, O‘zbekiston oliy ligasida eng yosh ishtirokchi sifatida tarixga kirdim. 13 yoshimda Jahon shaxmat olimpiadasida O‘zbekistonning eng yosh ishtirokchisi sifatida qatnashdim. Shu yili “Kelajak bunyodkori” medaliga loyiq ko‘rildim. Prezidentimiz qo‘lidan bu nufuzli

mukofotni qabul qilib olar ekanman, o‘z oldimga katta-katta maqsadlar qo‘ygandim o‘shanda.

Ishtirok etgan har bir o‘yin va musobaqam menga katta tajriba maktabi bo‘ldi. Bugunga qadar ko‘plab nufuzli musobaqalarda g‘olib bo‘ldim. Vatanimiz sharafiga munosib himoya qilishga intilyapman.

2023-yil Italiyaning Montesilvano shahrida o‘tkazilgan 14 yoshgacha bo‘lgan qizlar o‘rtasida jahon chempionatida viza muammolari tufayli musobaqaga bir kun kechikib bordik. 1-turga qatnasha olmagani bo‘lsam-da, qolgan turlarning barchasida g‘olib chiqib, muddatidan avval chempionlikni qo‘lga kiritdim. O‘tgan yili Nyu-York shahrida o‘tkazilgan shaxmatning tezkor turi — rapid bo‘yicha yuqori o‘rinlarga munosib chiqib, jahonning eng kuchli ayollari o‘rtasida faxrli yigirmatalikdan joy oldim.

“O‘tgan yili Braziliyada o‘tkazilgan 16 yoshgacha bo‘lgan o‘smirlar o‘rtasidagi jahon chempionatida 10 ta g‘alaba va bitta durang qayd etib, muddatidan oldin g‘olib bo‘ldim. Bu xalqaro maydondagi ikkinchi chempionlik unvonim hisoblanadi.

8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni arafasida davlatimizning nufuzli mukofotlaridan biri — Zulfiya nomidagi Davlat mukofoti bilan taqdirlandim. Bu kunlar bir paytlar bobom boshlab bergan yo‘lining taqdirimdagi eng go‘zal lahzalari bo‘ldi. Oldinda rejalarni, maqsadlarim bisyor. Ona xalqim, vatanim sharafiga munosib himoya qilib, bildirilgan ishonchni oqlashga va‘da beraman.

Oramizdagi odamlar OBODLIKNI QALBIGA JOYLAGAN AYOL

Prezidentimizning “8-mart — Xalqaro xotin-qizlar kuni munosabati bilan mukofotlash to‘g‘risida”gi farmoniga muvofiq, yurtimizdagi tub islohotlarda faol qatnashib, yangi O‘zbekistonni barpo etish, oilalarda ma‘naviy-axloqiy muhitni mustahkamlash hamda yoshlarni vatanga muhabbat va sadoqat, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashga hissa qo‘shib kelayotgan bir guruh vatandoshlarimiz mukofotlandi.

Jumladan, Termiz tumanida yashovchi Oygul Shomurodova “Do‘stlik” ordeni bilan taqdirlandi. U bir necha yildan buyon tuman obodonlashtirish boshqarmasida gul yetishtiruvchi vazifasida faoliyat yuritib keladi.

Oygul opa har kuni turfa faslda quyosh ufqdan bosh ko‘tarmay turib, ko‘pchilik shirin uyquda mahali tuman markazi ko‘chalarini tozalash, bog‘larni obodonlashtirish, yashil hududlarni parvarishlash kabi mas‘uliyatli vazifalarni bajarishga kirishadi. Bir qarashda u singari yurtdoshlarimizning mehnatiga ko‘p ham e‘tibor beravermaymiz. Aslida, ularning ishi yurt obodligi, yurtdoshlarimizning bunyodkorlik kayfiyati uchun ham muhim va qadri.

Termiz tumani obodonlashtirish boshqarmasida 200 dan ortiq xodim ishlaydi. Ularning 112 nafari ayollar. — Obodonlashtirish bo‘yicha ishlayotganimga bu yil 12 yildan oshdi. Gul yetishtiruvchi bo‘lib ishlayman. Kasbdoshlarim orasida ishini ustasi, yashillikni sevadigan, tabiat qo‘ynida ishlashni yaxshi ko‘ruvchi o‘nlab, yuzlab ayollar bor, — deydi “Do‘stlik” ordeni sohibasi Oygul Shomurodova. — Bu mukofot bir menga emas, obodonlashtirish boshqarmalarida ishlovchi barcha hamkasblaringa qaratilgan yuksak e‘tibor namunasi deb bilaman. To‘g‘risi, eshitib yig‘lab yubordim. Chunki kutmagandim.

Egallagan kasbi ortidan halol umr kechirish hamda e‘tirof etilishdan ortiq baxt yo‘q. Kasbga sadoqat

bilan yondashish, mehr berish insonni el ichida qadr toptiradi.

— Asosan, Termiz tumanidagi xalqaro aeroport atrofida ishlaymiz. Bu joyning o‘ziga xos qiyinchiligi bor. Ko‘pchilik bu yerda ishlashga unamaydi. Sababi Termizga kelgan mehmon aeroportdan chiqib, shu yerdagi obodonlashtirishga — bizning ishimizga baho beradi. Bu sohada ishlash uchun ozodalikni sevish, tabiatga oshno, mehnatsevar va vatanparvar bo‘lish kerak. Shunda hududni ko‘rkam ko‘rinishda saqlash, sog‘lom va toza muhit yaratishga hissa qo‘sha olasiz, — deydi Oygul opa. — Qishin-yozin turfa xil, rang-barang gullarning yo‘li yogashida ochilib turishi kishilarni xursand qiladi. O‘zim ham ishimizni mehmonlar, sayyohlar kuzatib, ko‘zi quvnayotganini ko‘rib sevinaman.

Oygul Shomurodova bugun el e‘zozida. Ha, mehnat qilgan, kasbini sevgan elda azizligi bor gap. U ham inson qadri yuksalib borayotgan bir yurtda fidokorona mehnatining samarasini ko‘rmoqda.

Sarvar TO‘RAYEV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

